

KONSTITUTSIYA - ERKIN FARAVON HAYOT GAROVI

Sadriyeva Sabrina Salohiddin qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti

Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi

Birinchi bosqich talabasi

105-guruh. +998 90 414 77 32

Annotatsiya: *Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining jamiyatda erkin va farovon hayotni ta'minlashdagi o'rni va ahamiyatini tahlil qiladi. Konstitutsiyaning inson huquqlari, erkinliklari va davlat boshqaruvidagi o'rni, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga qo'shgan hissasi batafsil o'rganilgan. Maqolada Konstitutsiyaning huquqiy va ijtimoiy funksiyalari, uning erkinlik va farovonlik kafolatlari, shuningdek, amaliy tatbiqidagi muammolar va ularni yechish yo'llari muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Konstitutsiya, huquqiy davlat, inson huquqlari, erkinlik, farovonlik, qonun ustuvorligi, jamiyat, ijtimoiy kafolatlar.*

Аннотация: *В данной статье анализируется роль и значение Конституции Республики Узбекистан в обеспечении свободной и благополучной жизни в обществе. Подробно рассматриваются права человека, свободы и место Конституции в системе государственного управления, а также её вклад в социально-экономическое развитие. В статье обсуждаются правовые и социальные функции Конституции, гарантии свободы и благополучия, а также проблемы её практического применения и пути их решения.*

Ключевые слова: *Конституция, правовое государство, права человека, свобода, благополучие, верховенство закона, общество, социальные гарантии*

Abstract: *This article analyzes the role and significance of the Constitution of the Republic of Uzbekistan in ensuring a free and prosperous life in society. It examines in detail human rights, freedoms, and the Constitution's place in the system of state governance, as well as its contribution to socio-economic development. The article discusses the legal and social functions of the Constitution, guarantees of freedom and prosperity, and the challenges in its practical implementation, along with possible solutions.*

Keywords: *Constitution, rule of law, human rights, freedom, prosperity, supremacy of law, society, social guarantees*

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatning siyosiy, huquqiy va ijtimoiy tizimini belgilab beruvchi asosiy hujjat sifatida bugungi kunda ham o'zining dolzarbligini yo'qotmagan. Mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va huquqiy davlat barpo etish jarayonida Konstitutsiyaning roli yanada ortib bormoqda. Ayniqsa, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini

mustahkamlash, fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltirish jarayonlarida Konstitutsiya muhim normativ-huquqiy asos vazifasini bajaradi.

So‘nggi yillarda Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgarish va qo‘shimchalar jamiyatning zamonaviy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy tenglik, adolat va farovonlikni ta‘minlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. 2023-yilgi konstitutsiyaviy islohotlar ijtimoiy himoya, yoshlar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, ta‘lim va sog‘liqni saqlash sohalarida fuqarolarning huquqiy kafolatlarini yanada kuchaytirgani, mazkur mavzuning dolzarbligini yanada oshirdi.

Shu bilan birga, globallashuv, iqtisodiy raqobat, migratsiya, axborotlashuv va raqamli transformatsiya kabi zamonaviy jarayonlar Konstitutsiyaning amaliy tatbiqini chuqur o‘rganishni va uning jamiyatdagi erkinlik hamda farovonlikni ta‘minlashdagi o‘rnini yanada tahlil qilishni taqozo qilmoqda. Fuqarolarning Konstitutsiyaga hurmati va unga rioya etish madaniyati – huquqiy davlatning barqaror faoliyat yuritishining asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Shu ma’noda, Konstitutsiyaning jamiyat hayotidagi o‘rni, uning erkin va farovon hayotni ta‘minlashdagi ahamiyati, amaliyotdagi muammolar hamda ularning yechimlarini o‘rganish — bugungi kunda ham nazariy, ham amaliy jihatdan dolzarb masalalardan biridir. Bu borada olib boriladigan tadqiqotlar demokratik islohotlarning samaradorligini oshirish, huquqiy madaniyatni rivojlantirish va fuqarolik jamiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar mazkur sohaning nazariy va amaliy jihatlarini yoritishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida bir nechta asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy qarashlar shakllanganini ko‘rish mumkin.

Shuningdek, T.Ahmedovning “Ijtimoiy himoya va huquqiy kafolatlar” asarida Konstitutsiyada belgilangan ijtimoiy kafolatlarning davlat siyosatidagi roli, fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish bo‘yicha huquqiy mexanizmlar o‘rganilgan. Ta‘lim, sog‘liqni saqlash, bandlik kabi yo‘nalishlar bo‘yicha konstitutsiyaviy normalarning amaliy natijalari to‘g‘risida ilmiy yondashuvlar mavjud.

N.Soliyevning “Qonun ustuvorligi va demokratik tamoyillar” kitobi Konstitutsiyada belgilangan demokratik boshqaruv, hokimiyatlar bo‘linishi, qonunning ustunligi kabi tamoyillarni chuqur yoritadi. Muallif Konstitutsiya davlatning siyosiy tizimini barqarorlashtiruvchi asosiy hujjat ekanini ta’kidlaydi.

A.Islomovning “Konstitutsiyaviy islohotlar va jamiyat” (2023) asari so‘nggi yillarda amalga oshirilgan konstitutsiyaviy o‘zgarishlarning mazmuni, ularning ijtimoiy ahamiyati va jamiyatga ta’siri haqida chuqur tahlil beradi. Xususan, 2023-yilgi islohotlarning ijtimoiy adolat va farovonlikni oshirishga qaratilgani ilmiy asoslangan.

S.Tursunov ning “Huquqiy madaniyat va jamiyat” kitobida Konstitutsiyaning fuqarolar huquqiy ongini shakllantirishdagi o‘rni keng yoritilgan. Muallif fuqarolarning Konstitutsiyani bilishi, hurmat qilishi va unga amal qilishi jamiyatning demokratik taraqqiyotida asosiy omil ekanini ta’kidlaydi.

Nihoyat, R.Yodgorovning “O‘zbekiston Konstitutsiyasining amaliy ahamiyati” asarida Konstitutsiya normalarining amaliyotdagi tatbiqi, mavjud muammolar va ularning yechimlari bo‘yicha ilmiy takliflar berilgan.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining jamiyatda erkinlik, ijtimoiy adolat va farovonlikni ta‘minlashdagi roli bo‘yicha keng doiradagi ilmiy ishlanmalar mavjud. Tadqiqotchilar Konstitutsiyaning huquqiy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy funksiyalarini turli jihatdan o‘rganib, uni demokratik jamiyat qurishning poydevori sifatida baholaydilar. Shuningdek, Konstitutsiyaning amaliy tatbiqini takomillashtirish, huquqiy madaniyatni oshirish va demokratik tamoyillarni yanada mustahkamlashga qaratilgan ilmiy yondashuvlar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va muhokama

O‘zbekiston davlatchilik tarixida konstitutsiyaning tadrijiy kelib chiqichi o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmagan. Buning negizi 1920-yillarga borib taqaladi. 1920 yillarga kelib, O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi ulkan o‘zgarishlarga boy bo‘ldi. Bu tarixiy o‘zgarishlar bevosita O‘zbekiston hududida tashkil topgan davlatlar va ularning huquqiy tizimlari bilan bog‘liq.

Xivada 1920 yil 1 fevralda Xon hukumati ag‘darilib, “xalq inqilobi” tufayli hokimiyat besh kishidan iborat Vaqtli hukumat qo‘liga o‘tdi. Vaqtli hukumat manifest e‘lon qilib, “Xiva inqilob-chilari mamlakatni Xon va uning hukumati tomonidan boshqari-lishiga barham beradi va uning xonadoniga, ministrilariga tegishli mulk va mablag‘lar musodora qiladi” deyilgan. Muvaqqat hukumat 1920 yilning 26 aprelda xalq vakillarining Butun Xorazm I-qurultoyida Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tuzilganligini va 30 aprelda Respublika Konstitutsiyasi qabul qilinganligini e‘lon qildi. XXSR bilan RSFSR o‘rtasida iqtisodiy shartnoma tuzildi.

1920 yilning sentyabrida Buxoroda to‘ntarish natijasida amir hokimiyati ag‘darib tashlangan. Shu yilning 6 oktyabrida Buxoroda Umumbuxoro Xalq Vakillari birinchi qurultoyi ish boshladi va Buxoro Xalq Sovet Respublikasi deb e‘lon qildi. 1920 yilning 23 sentyabrida Buxoro Sovetlarining qurultoyi uning birinchi Konstitutsiyasini qabul qilgan.

1925 yil 19 fevralida Buxoroda O‘zbekiston Sovetlarining 1-qurultoyida “O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasini tashkil qilinishi to‘g‘risida”gi Deklaratsiya qabul qilingan. Bunda Turkiston, Buxoro viloyati Xorazm hududidagi respublikalar asosida milliy davlat chegaralanishi natijasida O‘zbekiston Respublikasi tashkil bo‘lganligi e‘lon qilindi. Bu respublika Toshkent, Samarqand, Farg‘ona, qashqadaryo, Zarafshon, Surxondaryo va Xorazm viloyatlaridan va Tojikiston Avtonom Respublikasidan tashkil topdi.

1925 yilda O‘zbekiston Respublikasini SSRni tarkibiga qabul qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Sovetlarining 1927 yil 30 martda bo‘lib o‘tgan 2-qurultoyida O‘zbekiston SSRning birinchi Konstitutsiyasi qabul qilindi. 1929 yilda ushbu konstitutsiyaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Ma‘lumki 1936 yil 7 dekabrda Sovet Ittifoqining yangi Konstitutsiyasi qabul qilingan. Jamiyatda ro‘y bergan iqtisodiy, sinfiy, milliy sohalardagi o‘zgarishlar ushbu Konstitutsiyaning qabul qilinishiga sabab bo‘ldi. Bu konstitutsiya o‘sha kommunistik

ta'limotga binoan, ittifoqda iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalarda erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, davlatchilikni yanada takomillashtirish vazifalarini bajarishi kerak edi.

Butun O'zbek Sovetlarining Favquloddagi VI kurultoyi 1937 yil 14 fevralda O'zSSRning yangi Konstitutsiyasini Sovet Ittifoqining 1936 yilgi Konstitutsiyaga to'liq mos ravishda qabul qildi. Yangi Konstitutsiya o'sha davrning maqsadiga muvofiq ravishda "Sotsializm qurish" sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlarini qonunlashtirdi.

O'zbekiston davlati va huquqi rivojlanishi tarixida 1978 yilda qabul qilingan Konstitutsiya alohida ahamiyat kasb etadi. Konstitutsiya Oliy Sovet sessiyasida 1978 yil, 18 aprelda qabul qilindi. Unda O'zbekistonning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, davlat organlari-ning tuzulishi printsiplari ularning tizimi va vakolatlari davr talabiga moslashtirib mustahkamlangan.

O'zSSRning Konstitutsiyasi kirish (muqaddima), XI bo'lim, 21 bob 188-moddadan iborat edi. Bu Konstitutsiya 1937 yilgi Konstitutsiyadan o'zining muqaddimasi bilan ajralib turadi unda respublika bosib o'tilgan yo'l, Konstitutsiyaga asos bo'lgan manbalar ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan bo'lib, u erkin va farovon jamiyat barpo etishning huquqiy asosini yaratdi.

Bugungi kunda Konstitutsiya davlatning barcha organlari, jamiyat va fuqarolar faoliyatining normativ-huquqiy asosini tashkil qiladi. Shuningdek, u ijtimoiy adolat, qonun ustuvorligi, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega. Konstitutsiya orqali davlat fuqarolarga sog'liqni saqlash, ta'lim, bandlik va ijtimoiy himoya kabi asosiy kafolatlarni beradi, shuningdek, qonun oldida tenglik tamoyilini ta'minlaydi. Shuningdek konsitutsiyaning o'ziga xosligi shundan iboratki, unda gipoteza va dispoztsiyadan iborat bo'lib sanksiyalardan xoliligi bilan ajralib turadi. Ya'ni, uning tuzilishi faqatgina tavsiya ko'rinishidan iboratligi bilan ajralib turadi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikdan so'ng umumxalq referendumini asosida 2023 yilda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Xususan, ajamiyatda erkinlik va farovonlikni ta'minlovchi eng muhim huquqiy vosita sifatida bir nechta yo'nalishda o'rganiladi. U nafaqat davlat tuzilmasi va fuqarolarning huquqiy maqomini belgilaydi, balki ijtimoiy adolat, demokratik tamoyillar va huquqiy madaniyatni shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi.

Birinchi jihatdan, Konstitutsiya insonning asosiy huquqlari va erkinliklarini himoya qiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28-moddasida "Har bir shaxs qonun oldida teng huquqlidir" deb belgilangan [5]. Bu norma fuqarolar o'rtasida ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, shaxsiy daxlsizlik, so'z erkinligi, fikr va e'tiqod erkinligi kabi asosiy huquqlar Konstitutsiyada aniq belgilangan bo'lib, ular jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega [2]. Inson huquqlarining himoya qilinishi faqat davlat organlari tomonidan kafolatlanib qolmay, balki jamiyatda huquqiy ongning shakllanishiga ham xizmat qiladi. Fuqarolar o'z huquqlarini bilishi va ularni amalga oshirishga tayyor bo'lishi, o'z navbatida, erkin va farovon jamiyat barpo etishning muhim sharti hisoblanadi [9].

Ikkinchi jihatdan, Konstitutsiya ijtimoiy farovonlikni ta'minlash mexanizmini belgilaydi. Masalan, Konstitutsiyaning 41, 64 va 65-moddalarida bandlik kafolati, ta'lim olish, sog'liqni saqlash xizmatlariga kirish kabi huquqlar batafsil ko'rsatilgan [6]. Bu holat ijtimoiy himoya

tizimini shakllantiradi va jamiyatdagi nohaqliklarning oldini olishga xizmat qiladi. Bandlik kafolatining amalda ishlashi, fuqarolarga barqaror daromad manbai va moddiy xavfsizlikni ta'minlash imkonini beradi. Shu bilan birga, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida erkin va teng imkoniyatlar yaratish orqali jamiyatning intellektual va ijtimoiy rivojlanishi ta'minlanadi [4].

Uchinchidan, Konstitutsiya davlat hokimiyatining shakllanishi va uning fuqarolarga bo'lgan mas'uliyatini tartibga soladi. Qonun ustuvorligi va davlat organlarining faoliyatida Konstitutsiyaga rioya qilish tamoyili ijtimoiy barqarorlik va erkinlikni mustahkamlashga xizmat qiladi [7]. Konstitutsiyaning ustuvor huquqiy kuchi davlat organlarini fuqaro manfaatlarini hisobga olgan holda faoliyat yuritishga majbur qiladi. Shu bilan birga, Konstitutsiya orqali fuqarolar davlat boshqaruvida ishtirok etish huquqiga ega bo'lib, saylovlar va boshqa demokratik institutlar orqali o'z fikrini bildirish imkoniyatiga ega bo'ladi [8]. Bu esa demokratik jamiyatning barqarorligini va erkinlikni ta'minlaydigan eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

To'rtinchidan, Konstitutsiya vaqti-vaqti bilan amalga oshiriladigan islohotlar bilan jamiyatning rivojlanish talablariga moslashadi. Masalan, 2017 va 2023-yillarda qabul qilingan o'zgartirishlar ijtimoiy himoya, bandlik, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida fuqarolarning huquqiy kafolatlarini yanada kuchaytirishga qaratilgan edi [8]. Ushbu islohotlar Konstitutsiyaning zamon talablariga moslashuvchanligini ko'rsatadi va uning erkinlik va farovonlikni ta'minlashdagi amaliy ahamiyatini oshiradi. Shu ma'noda, Konstitutsiyaga kiritilgan har bir o'zgartirish jamiyatdagi huquqiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Beshinchidan, Konstitutsiya fuqarolarning huquqiy ongini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Fuqarolar o'z huquqlarini va majburiyatlarini bilishi, ularni amalga oshirishga tayyor bo'lishi jamiyatda erkinlik va farovonlikning barqarorligini ta'minlaydi [9]. Huquqiy ongning rivojlanishi bilan birga, jamiyatda ijtimoiy adolat va qonun ustuvorligi tamoyillari mustahkamlanadi. Shu bilan birga, huquqiy madaniyatning oshishi Konstitutsiyaga hurmat va uning amaliy tatbiqini yanada kuchaytiradi.

Oltinchidan, Konstitutsiya orqali jamiyatda erkinlik va farovonlikni ta'minlashning ijtimoiy va iqtisodiy asoslari yaratiladi. Bu jarayonda davlat organlari va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalar muhim ahamiyatga ega. Konstitutsiyaning 38 va 39-moddalarida shaxsning mulki huquqi va mehnat erkinligi kafolatlanadi [3]. Shu bilan birga, davlatning iqtisodiy siyosati va ijtimoiy dasturlari Konstitutsiyada belgilangan huquqlarni amalga oshirishga qaratilgan. Masalan, ijtimoiy nafaqalar, pensiyalar, ishsizlik bo'yicha yordam va boshqa ijtimoiy kafolatlar fuqarolarga erkin va barqaror hayot sharoitlarini yaratadi.

Yettinchidan, Konstitutsiya fuqarolar va davlat organlari o'rtasidagi huquqiy muvozanatni ta'minlaydi. Qonun oldida tenglik, inson huquqlarini himoya qilish, fuqarolarning erkin va farovon hayotini kafolatlash davlatning asosiy majburiyatlaridan biri hisoblanadi [5]. Shu ma'noda, Konstitutsiya fuqarolarni davlat boshqaruvida faol ishtirok etishga undaydi va ularning ijtimoiy huquqlarini kafolatlaydi.

Sakkizinchidan, Konstitutsiya erkinlik va farovonlikni ta'minlashda huquqiy vositalar bilan bir qatorda ijtimoiy islohotlar va siyosiy mexanizmlarni ham muvofiqlashtiradi. Bu esa

jamiyatda erkin, adolatli va farovon hayotning barqarorligini ta'minlaydi [10]. Shu jihatdan qaraganda, Konstitutsiya nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ham kafolati sifatida xizmat qiladi.

To'qqizinchi, Konstitutsiya jamiyatda barqaror va adolatli davlat boshqaruvini tashkil etadi. Fuqarolar o'rtasida tenglik, ijtimoiy himoya va erkinlikni ta'minlash orqali jamiyatda ijtimoiy barqarorlik yaratiladi. Shu bilan birga, Konstitutsiya orqali erkin va farovon jamiyatni yaratish davlatning barcha organlari faoliyatining asosiy tamoyili sifatida qabul qilinadi [1].

O'ninchidan, Konstitutsiyaning amaliy tatbiqi va uning fuqarolar hayotidagi o'rni muhim ahamiyatga ega. Konstitutsiyaga rioya qilish, inson huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy kafolatlarni amalga oshirish orqali erkin va farovon jamiyat barpo etiladi. Shu nuqtai nazardan, Konstitutsiya jamiyatning barcha sohalarida – huquqiy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy – o'zini namoyon qiladi [4].

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi erkinlik va farovonlikni ta'minlashning asosiy huquqiy vositasi sifatida jamiyatning barcha sohalarida muhim rol o'ynaydi. U inson huquqlarini himoya qiladi, ijtimoiy barqarorlik va adolatni ta'minlaydi, davlat boshqaruvining demokratik tamoyillarini mustahkamlaydi va fuqarolarning huquqiy ongini shakllantiradi. Shu bilan birga, Konstitutsiya orqali jamiyatdagi erkin va farovon hayotning barqarorligini ta'minlash imkoniyatlari kengaytiriladi.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jamiyatda erkinlik va farovonlikni ta'minlovchi asosiy huquqiy hujjat sifatida alohida ahamiyatga ega. U inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlaydi, ijtimoiy himoya va bandlikni ta'minlaydi, davlat organlari faoliyatini tartibga soladi hamda fuqarolarning huquqiy ongini shakllantiradi. Konstitutsiyaning amaliy tatbiqi va zamonaviy o'zgartirishlar jamiyatda erkin, adolatli va farovon hayotning barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu ma'noda, Konstitutsiya nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ham kafolati sifatida qaraladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent: "Huquq" nashriyoti, 1992, 1-24-betlar.
2. Mirziyoyev Sh.M. "O'zbekistonning demokratik rivojlanish yo'li." Toshkent: "Uzbekistan" nashriyoti, 2020, 45-67-betlar.
3. Karimov I.A. "Davlat va huquq tizimi." Toshkent: "Adolat" nashriyoti, 2018, 112-135-betlar.
4. Bobokhonov F. "Huquqiy davlat tamoyillari." Toshkent: "Yangi asr avlodi" nashriyoti, 2019, 78-99-betlar.
5. Rashidov M. "Inson huquqlari va erkinliklari." Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2021, 55-74-betlar.
6. Ahmedov T. "Ijtimoiy himoya va huquqiy kafolatlar." Toshkent: "Huquqiy manbalar" nashriyoti, 2022, 33-51-betlar.

7. Soliyev N. “Qonun ustuvorligi va demokratik tamoyillar.” Toshkent: “Yuridik nashr” nashriyoti, 2020, 102-120-betlar.
8. Islomov A. “Konstitutsiyaviy islohotlar va jamiyat.” Toshkent: “Davlat nashri” nashriyoti, 2023, 5-28-betlar.
9. Tursunov S. “Huquqiy madaniyat va jamiyat.” Toshkent: “Ilm-fan” nashriyoti, 2021, 66-88-betlar.
10. Yodgorov R. “O‘zbekiston Konstitutsiyasining amaliy ahamiyati.” Toshkent: “Ziyo nashr” nashriyoti, 2019, 40-59-betlar.